



PROSODIK TADQIQOTLAR TARIXI

Gaziyeva Maftuna Muhammadovna

FarDU tilshunoslik kafedrasasi dotsenti, f.f.d.(DSc)

O'rinboyeva E'zozxon Komolovna

FarDU tilshunoslik kafedrasasi dotsenti v.b., f.f.f.d. (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15799005>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-Iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 28-Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 30-Iyun 2025 yil

KEYWORDS

Prosodika, fonetika,
intonatsiya, urg'u,
eksperimental-fonetik
tadqiqotlar, ritorika,
pragmalingvistika,
supersegment birliklar, nutq
madaniyati.

ABSTRACT

Ushbu maqola fonetika va uning tarkibiy qismi sifatida prosodika nazariyasining shakllanish jarayonlari va rivojlanish bosqichlarini yoritadi. Prosodik vositalarning (intonatsiya, urg'u, pauza, temp va boshqalar) tarixiy taraqqiyoti qadimgi ritorika maktablari, sahna nutqi hamda publisistik amaliyotda shakllangan nazariy qarashlardan boshlab, XX-XXI asrlarda eksperimental-fonetik tadqiqotlar asosida chuqurlashganligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda prosodik birliklarning fonetik va pragmatik funksiyalari, ularni o'rganish metodlari, zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida amalga oshirilayotgan eksperimental kuzatishlarning ilmiy ahamiyati ko'rsatib berilgan. Shuningdek, prosodika nazariyasining zamonaviy yo'nalishlari va ularning o'zbek tilshunosligidagi istiqbollari aniqlab berilgan.

Fonetika inson nutqining tovush tabiatini, uning fiziologik va akustik xususiyatlarini o'rganuvchi muhim fan sohasi sifatida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida mustaqil ilmiy yo'nalishga aylandi. Shu davrdan boshlab fonetikaning tarkibiy qismi sifatida prosodika ham shakllandi va nutqning supersegment birliklarini o'rganishga qaratilgan izlanishlar vujudga keldi. Prosodik vositalarning, jumladan intonatsiya, urg'u, pauza, temp va ritmning nutqning mazmunini aniqlashdagi o'rni nafaqat tilshunoslik, balki publisistika, sahna nutqi, kommunikatsiya nazariyasi va boshqa ijtimoiy fanlar uchun ham alohida ahamiyat kasb etdi.

Ammo prosodika masalalarini chuqur tadqiq qilish uchun zarur bo'lgan texnik vositalarning uzoq davr davomida yetarli emasligi ushbu yo'nalishning rivojlanishini sekinlashtirdi. Faqat XX asrning o'rtalaridan boshlab elektroakustik va intonografik metodlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi natijasida prosodik birliklarni ilmiy asosda aniqlash va tahlil qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Bugungi kunda esa zamonaviy kompyuter dasturlari va multimodal eksperimental metodlar yordamida prosodika nazariyasi yangi rivoj bosqichiga chiqmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Prosodika va intonatsiya masalalari bo'yicha qator tadqiqotchilar nazariy va amaliy izlanishlar olib borgan. S.Axmanova prosodiya tushunchasini supersegment vositalarning umumiy nomi sifatida ta'riflagan bo'lib, uning tarkibiy komponentlari sifatida melodika,

dinamika, temp va pauza kabi birliklarni ko'rsatgan. V.A.Artemov eksperimental fonetika va intonografik metod asoschisi sifatida intonatsiyaning fiziologik va akustik parametrlarini chuqur o'rganib, ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqqan.

M.I.Matusevich urg'u va intonatsiyaning cho'ziqlik, kuch va balandlik kabi xususiyatlarini tadqiq qilgan bo'lsa, N.D.Svetozarova prosodik vositalarning integral va differensial belgilarini aniqlashga alohida e'tibor qaratgan. N.V.Cheremisina poeziya, proza va so'zlashuv nutqi intonatsiyasining farqli va umumiy tomonlarini qiyosiy asosda ko'rsatgan.

L.A.Kanter intonatsiya tizimini eksperimental-fonetik metodlar asosida tahlil qilgan bo'lsa, A.Brizgunova rus nutqi intonasion konstruksiyalarini shakllantirgan. Shuningdek, D.L.Lensa va Ye.V.Solovyeva segment va supersegment birliklarni pragmatik jihatdan o'rgangan va ularning kommunikativ hamda emotsional funksiyalarini ajratib ko'rsatgan. A.M.Antipova va A.S.Volkov ritm va prosodiya o'zaro munosabatini izchil tadqiq etgan.

Mazkur adabiyotlar prosodik vositalarni nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganishning poydevorini yaratgan.

Metod va metodologiya

Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarda asosiy metod sifatida eksperimental-fonetik kuzatishlar qo'llaniladi. Elektroakustik metodlar (intonografiya, spektroografiya), kompyuter dasturlari (Praat, Speech Analyzer), statistik tahlil, foizlar asosidagi parametrlarni hisoblash, vizual ko'rinishdagi grafik materiallar tayyorlash metodlari tadqiqotning asosini tashkil etadi. Shu bilan birga, pragmalingvistik tahlil metodlari (intonatsiya komponentlarining kommunikativ vazifalarini aniqlash), tipologik va qiyosiy tahlil metodlari (turli tillardagi intonatsiya tizimlarini taqqoslash), nazariy izoh va deskriptiv metodlar ham keng qo'llanadi.

Metodologik asos sifatida fonetika, eksperimental fonetika, ritorika, pragmalingvistika, stilistika nazariyalari va supersegment birliklar haqidagi konsepsiyalar olinadi. Masalan, N.D.Svetozarova va M.I.Matusevich asarlari fonetik nazariyaning ilmiy manbai sifatida xizmat qiladi.

Asosiy qism

Fonetika fan sohasi sifatida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida shakllandi. Prosodika esa fonetikaning alohida tarkibiy qismi sifatida doimo tilshunoslar e'tiborini jalb etib kelgan. Prosodika masalalari mohiyatini belgilash keng qamrovli eksperimental tadqiqotlar o'tkazishni talab qiladi. Lekin bu izlanishlarni olib borish uchun zarur bo'lgan yuqori aniqlikdagi texnik-uskunaviy jihozlarning yetarli bo'lmaganligi sabab prosodika sohasini o'rganish tilshunoslikning boshqa sohalardan sezilarli darajada ortda qolmoqda.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining rivojlanishi, shuningdek, tor sohalardan uchun ham xizmat qiladigan zamonaviy kompyuter dasturlarining ishlab chiqilishi tadqiqotlar imkoniyatining kengayishiga sharoit yaratdi. Bu esa tilshunoslikda prosodika sohasidagi tadqiqotlarning jonlanishiga va olinayotgan ilmiy natijalarning aniqligiga olib keldi. Texnik imkoniyatlarning kengayganligi hamda oraliq sohalarning tadqiqot obyekti sifatida belgilanishi umumiy ma'noda fanning rivojlanishiga turtki bo'lmoqda.

Ma'lumki, har bir sohaning ilmiy asosi shu yo'nalishga oid atamalarning mukammal izohiga tayanadi. Prosodiya atamasiga maxsus lug'atlarda "Prosodiya (grekcha prosodia – urg'u ma'nosini anglatadi) – 1) antik poetikada metrik she'r bo'g'inlaridagi cho'ziqlikka asoslangan urg'u miqdori haqidagi bilim hisoblanib, "miqdoriy prosodiya" ma'nosida qo'llangan; 2) rus poetikasida esa prosodiya tushunchasi ostida she'rshunoslik sistemasi yoki

she'riy o'lchov sistemasi tushunilgan" deb izoh beriladi [11, 227]. Demak, prosodiya hodisasi bo'g'inga aloqador bo'lib, urg'uli va urg'usiz bo'g'inlardagi miqdoriy ko'rsatkichlarga asoslanadi. Prosodiya va prosodika atamalarining sohaga oid adabiyotlarda sinonim sifatida qo'llanishi kuzatiladi. Prosodika supersegment birliklarni o'rganuvchi fonetikaning alohida bo'limidir. Shuning uchun ham fonetik birliklar segment va supersegment birliklar sifatida ajratiladi. Prosodikaga S.Axmanova quyidagicha ta'rif beradi: "prosodiya supersegment vositalarning umumiy nomi bo'lib, aynan tonning balandligi, cho'ziqlik (miqdor) va balandlikdir (kuch, amplituda)" hamda "asosiy tonning ko'tarilishi va pasayishi (melodika), kuchli va kuchsiz urg'ularning taqsimoti (dinamika), nutqning tez yoki sekinligi (temp) hamda talaffuzning uzilishi (pauza) kabi nutqning supersegment vositalari birikish tamoyillari haqidagi ta'limot" dir [2, 367]. Prosodika fonetikaning maxsus bo'limi sifatida intonatsiya masalalarini ham qamrab oladi. Ko'rinadiki, bir atamani turlicha tushunish holatlari mavjud. Atamalar izohidagi bu kabi murakkabliklar ushbu sohada tadqiqot olib borish qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi.

Intonatsiya masalalarining o'rganilishi uzoq davrlarga borib taqaladi. Bu sohadagi dastlabki tadqiqotlar qadimgi Gresiya va Rimda ritorika sohasidagi izlanishlar natijasida yuzaga kelgan. Dastlab kishilar o'rtasidagi muloqot va kommunikatsiya jarayoni ehtiyojlari natijasida so'zlashuvchilar o'zaro bir-birlarini tushunish uchun harakat qilgan bo'lsalar, keyinchalik verbal ifodalar orqali ta'sir ko'rsatish va ommani boshqarish uchun nutqning ifodali, ta'sirchan, jonli bo'lishida intonatsiyaning barcha usul va vositalaridan mukammal darajada foydalanishga intilganlar.

Dastlab nutqning ifodaliligi so'zlovchining o'z maqsadiga erishishi uchun samarali usul sifatida o'rganilgan. Keyinchalik esa u publisistikaning shakllanishida muhim o'rin tutgan. Shuning uchun ham intonatsiya orqali ta'sir ko'rsatish publisistika, notiqlik san'ati, ritorika, sahna nutqi, kommunikatsiya kabi sohalarning rivojlanishida katta o'rin egallagan. Aslida fan sifatida "nutq tovushlarini o'rganuvchi alohida soha mavjud bo'lib, tembral bo'yoq orqali ma'no ifodalangan...sahna va publisistik nutq masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida shakllana boshlangan" deb e'tirof etiladi [22, 53-54]. Bu haqda boshqa ilmiy adabiyotlarda ham qiziqarli ma'lumotlar beriladi. Jumladan, manbalarda intonatsiya bilan bog'liq tahlillar publisistik nutq nazariyasi doirasida amalga oshirilganligi hamda publisistik nutq yoki notiqlik san'ati, ritorika, sahna nutqi intonatsiyasiga taalluqli bo'lgan bunday izlanishlar tarixi uzoq davrga borib taqalishi alohida ta'kidlanadi [15, 310-342].

Demak, nutq intonatsiyasi masalalarining o'rganilishi notiqlik san'atining rivojlanishi bilan uyg'un holda kechdi. Bu esa intonatsiya muammolari ritorikaning tarkibiy qismlaridan biri ekanligidan dalolat beradi. Professor N.Mahmudov ham o'zining notiqlik san'ati haqidagi qarashlarida nutqning ifodaviyligi, ta'sirchanligi va muloqot jarayonida intonatsiyaning o'rni muhim ekanligini alohida ta'kidlaydi. Ayniqsa, olimning qarashlarida segment birliklarning talaffuzi o'zbekona xarakterga ega ekanligi she'riy misollar bilan izohlab beriladi. Nafaqat tilshunoslar, balki badiiy so'z ijodkorlari ham tovushlarning talaffuzi, qattiq-yumshoqligi, ular talaffuzidagi turlicha tovlanish lar nutqning jonli va ifodali bo'lishini ta'minlashini e'tirof etadilar [16, 79]:

*Tovushlarning kichik, ulug'i,
Tovushlarning hidi, bo'yi bor.*

*Tovushlarning sovuq, ilig'i,
Tovushlarning rangi-ro'yi bor.
Tovushlarning shirin-achchig'i,
Bordir hatto yumshoq, qattig'i.
Shoir rassom bo'lsaydi agar,
chizar edi shunday lavhalar.*

(M.Shayxzoda, "Shoir qalbi dunyoni tinglar")

Yuqori axborot texnologiyalari bugungi kun tadqiqotchisiga, M.Shayxzoda aytganidek, rassom bo'lish imkoniyatini yaratib berdi. U shoir qilmagan ishni qila oladi: maxsus dasturlar orqali tovushlarning rangi-ro'yini, qattiq-yumshoqligini aks ettirishdan tashqari, ko'zga ko'rinmas, tutqich bermas intonatsiyaning ham suratini chiza oladi. Ya'ni eksperimental-fonetikaga oid maxsus tadqiqotlar nutq tovushlari va intonasion birliklarni vizual ko'rinishda tasvirlash imkonini beradi.

Nutq madaniyati sohasiga oid darslik va adabiyotlarda [26, 15; 29, 22] notiqlik san'atining shakllanishi haqida quyidagi fikrlar bildiriladi. Qadimgi Gresiyada aybdorlar, jinoyatchilar o'zining aybsizligini isbotlash uchun sud zalida nutq so'zlaganlar. Albatta, bunday iqtidor barcha odamlarda ham yetarli bo'lmagan. Natijada o'sha davrda sud notiqligi bilan bog'liq logograflar faoliyati shakllangan. Ayblanuvchilar ularga ta'sirchan, mazmunli, ifodali nutq tayyorlash bo'yicha buyurtmalar berganlar. Natijada ular maxsus yozilgan matndagi marjondek terilgan tovushlarni jonli nutqda mayin va ta'sirli, ba'zi o'rinlarda qo'pol va dag'al, lekin yoqimli ohangda mantiqiy izchillik bilan talaffuz qilish orqali himoyalanganlar.

Yuqoridagi fikrlar asosida intonatsiya nazariyasi ritorika, notiqlik san'ati, publisistik nazariya va sahna nutqi [28] kabi amaliy maktab bosqichlarida shakllanganligini ko'rish mumkin. Bu intonatsiya masalalariga qiziqish va o'rganishning birinchi davri hisoblanadi.

Tilshunoslikda prosodika nazariyasining shakllanishi eksperimental-fonetik tadqiqotlarning ilk davri bilan bog'lanadi. Pnevmatik metod eksperimental fonetikada tajriba o'tkazishning boshlang'ich davri hisoblanadi. Bu davr "...nutqning talaffuz qonuniyatlarini fiziologik va psixologik asboblarni vositasi bilan o'rganishdan boshlandi... pnevmatik metod amaliy fonetikaning taraqqiyotida muhim rol o'ynadi. Bu usul yordamida turli tillarning fonemalar sistemasi, ayrim fonetik hodisalarning artikulyasion mohiyati aniqlandi" [14, 54]. Biroq intonatsiya masalalarini o'rganish uchun bu metod orqali o'tkazilgan tajribalar nazarda tutilgan ilmiy xulosalarni bermadi.

A.Nurmonovning ta'kidlashicha, fonetika sohasida eksperimental kuzatishlar o'tkazish davrining asoschisi sifatida professor V.A.Artemov nomi tilga olinadi. U o'tgan asrning "30-yillariga kelib intonatsiya, pauza, bo'g'in kabi fonetik hodisalarni o'rganishda elektroakustik metodlardan foydalanish ishini boshlab berdi... V.A.Artemov nutqning fonetik xususiyatlarini tadqiq etishga mo'ljallangan elektrodinamik rekardyor, spektograf singari yangi apparatlar ixtiro qildi" [18, 81]. V.A.Artemov tomonidan yaratilgan intonografik metod fonetikaning taraqqiyotida muhim rol o'ynadi. Eksperimental fonetika sohasidagi tadqiqotlarning yuzaga kelishi fanda aniq ilmiy xulosalar chiqarish imkoniyatini yaratdi. Natijada nutq jarayonida prosodik vositalarning harakati bilan bog'liq hodisalar haqida dastlabki tushuncha va nazariyalar yuzaga kela boshladi. Nafaqat turkologiyada, balki dunyo tilshunosligida ham XX asrning oxiriga qadar fonetika sohasidagi eksperimental tadqiqotlar V.A.Artemov metodikasi asosida amalga oshirildi. Bu prosodika nazariyasi shakllanishining ikkinchi davri edi.

Tilshunoslikda prosodik vositalar haqidagi masalalar fonetik-fonologik sathga oid supersegment birliklar nomi bilan bog'liqdir. Prosodika masalalari bilan shug'ullanish asosan o'tgan asrning 50-80 yillariga to'g'ri keladi. Bu sohaning yirik vakillari hisoblangan M.A.Peshkovskiy, G.A.Glison, N.S.Trubetskoy, A.M.Shcherbak, A.A.Reformatskiy, L.R.Zinder [20; 6; 25; 32, 21, 8, 24] kabi olimlarning qarashlari umumiy tipologik fonetika masalalariga bag'ishlanganligi bilan ajralib turadi.

Intonatsiya masalalariga bag'ishlangan yirik ilmiy ishlardan biri T.M.Nikolayevaning "Intonatsiya slojnogo predlojeniya v slavyanskix yazыkax" nomli asaridir [17]. Ushbu ishda rus, chex, polyak va ukrain tillarida qo'shma gaplar intonatsiyasi qiyosiy-tipologik aspektda tahlil qilinadi. Qarindosh tillarda qo'shma gaplar intonatsiyasi tadqiqida dastlab intonatsiyaning temporal komponentlariga e'tibor qaratiladi. Xususan, temp va pauza mohiyatan vaqt paradigmasiga tegishli turdosh komponentlar sifatida o'rganiladi. Qo'shma gap komponentlarining melodik xususiyatlari hamda gapning tarkibiy qismlariga oid urg'uning darajalari foizlar asosida statistik tahlilga tortiladi. Nutqning segmentatsiyalanishiga oid fonetik birliklarda ohang va urg'uning funksional xususiyatlari ularning harakatlari orqali aniqlanadi. Olingan ilmiy xulosalar asosida til va nutq hodisalari farqlanib, intonemaning o'ziga xos jihatlari ochib beriladi, rus, chex, polyak va ukrain tillarida intonatsiya komponentlaridan pauza, temp, melodika, urg'u bilan bog'liq akustik parametrlar statistik metod orqali o'rganiladi.

Rus tilshunosligida M.I.Matusevichning "Sovremennyy russkiy yazыk. Fonetika" nomli o'quv qo'llanmasi prosodika sohasiga bag'ishlangan asosiy tadqiqotlardan biri hisoblanadi [13, 222-278]. Muallif kitobning urg'u deb nomlangan qismida so'z urg'usining cho'ziqlik, kuch, sifat va balandlik kabi fonetik tabiati va uning bo'g'inlardagi taqsimotiga alohida to'xtaladi. Sintagmatik urg'u tushunchasi ostida uning sintagmalardagi o'rni, ma'no ajratuvchilik funksiyasi hamda mantiqiy va empatik turlari to'g'risida o'z qarashlarini bayon qiladi. Shuningdek, u o'zining eksperimental-fonetik kuzatishlari asosida intonatsiya komponentlaridan biri bo'lgan melodikaning sintagma, kirish so'z va kirish gap, undalma, gapning kommunikativ turlaridagi funksiyalari bilan bog'liq masalalarni tahlil qiladi. Bu ish asosiy ton chastotasining o'zgarishi bilan bog'liq tekis, ko'tariluvchi va pasayuvchi ohang orqali sintaktik birliklar funksiyalarining ajratilishi va farqlanishi bilan xarakterlidir. Shu bilan birga, tadqiqotda intonatsiyaning faqat birgina komponenti – melodika o'rganilgan bo'lib, uning boshqa komponentlari e'tibordan chetda qolgan. Bizning nazarimizda, intonatsiya o'zining barcha komponentlari va ular bajargan funksiyalari bilan yaxlit holda o'rganilsagina, olingan ilmiy xulosalar aniq va fandagi ahamiyati yuqori bo'ladi.

M.V.Panov "Zamonaviy rus tili. Fonetika" ("Современный русский язык. Фонетика") [19] nomli darsligida segment va supersegment birliklarga tavsif bergan. Supersegment birliklarni tasnif qilish orqali urg'u, bo'g'in kabi birliklarning eksperimental jarayondagi vizual ifodasi, taktlar chegarasi, intonatsiya, fraza va mantiqiy urg'u kabi masalalarga izoh bergan. Darslikda bo'g'in, takt va fraza kabi fonetik birliklar tadqiqiga oid ma'lumotlar, shuningdek, intonatsiya va urg'u masalalariga oid ilmiy xulosalar asosida supersegment birliklar tavsiflangan. Bizning nazarimizda, ushbu ishda supersegment birliklar haqidagi ilmiy xulosalarni berish uchun segment birliklar haqidagi ma'lumotlarga to'xtalish to'g'ridir. Buni supersegment birliklarning segment birliklar talaffuzisiz yuzaga chiqmasligi bilan izohlash mumkin.

N.D.Svetozarovning “Rus tilining intonatsion tizimi (Интонационная система русского языка) [22]” nomli monografiyasi prosodika va intonatsiya nazariyasi masalalariga bag‘ishlangan. Unda, asosan, intonatsiya komponentlari va funksiyalari haqida fikr yuritilgan. Melodika, pauza, cho‘ziqlik, temp, intensivlik va prosodik tembr kabi intonatsiyaning komponentlari tahlil qilinadi. Olima intonatsiya nazariyasining asosiy muammolari bilan bir qatorda rus tili materiallari asosida intonatsiya sistemasining nutqda namoyon bo‘lish xususiyatlarini o‘rganadi. Uning izlanishlari mohiyatan prosodika va intonatsiyaning integral va differensial belgilarini ajratishga, prosodik vositalarning nutqdagi funksional xususiyatlarini ko‘rsatishga qaratilganligi bilan muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur monografiya muallifi intonatsiya nazariyasi masalalarini yoritishda eksperimental tadqiqot natijalaridan olingan ilmiy xulosalarga suyangani uchun ham uning har bir prosodik vosita haqidagi tahlillari, ayniqsa, urg‘u va intonatsiya haqidagi xulosalari qimmatlidir.

N.V.Cheremisina “Russkaya intonatsiya: poeziya, proza, razgovornaya rech (Русская интонация: поэзия, проза, разговорная речь)” [30] deb nomlangan kitobida proza, poeziya va so‘zlashuv nutqi intonatsiyasining farqli va o‘xshash jihatlari o‘rganilgan. Olima intonatsiya masalalarini nazariy planda maxsus tadqiq etadi. Unda boshqa olimlarnikidan farqli ravishda, intonatsiya, uning komponentlari til va nutq dixotomiyasi asosida tahlilga tortilgan. Melodika, urg‘u, temp, tembr, ritm kabi intonatsiyaning struktur birliklari so‘zlashuv nutqi, proza va she‘riy nutq ko‘rinishlari materiallari asosida tahlil qilinganligi bilan xarakterlidir. Tadqiqotning bu xususiyatlari poeziya, proza va so‘zlashuv nutqi intonatsiyalarining o‘zaro farqlanganligida ko‘rinadi.

A.M.Antipova “Ritmicheskaya sistema angliyskoy rechi” [1] asarida ingliz nutqining ritmik sistemasi tadqiq etilgan. Bunda asosiy e‘tibor ritm masalalariga qaratilgan. Prosodiya ritmni shakllantiruvchi vosita sifatida o‘rganilgan. Nutq ritmi, uning birliklari, she‘riy va prozaik nutqda ritm, ularning umumiy va farqli jihatlari ko‘rsatilgan. Shuningdek, asosiy e‘tibor prosodika, prosodik komponentlar va uning funksiyalariga qaratilgan. Xususan, prosodiya funksiyalarining “...kommunikativ, emosional-modal, sosial, struktur hamda ritm va stil hosil qiluvchi funksiyalari mavjud”ligi [1, 49-51], shuningdek, ularning o‘rganilishi bir-biridan tubdan farqlanishi ko‘rsatiladi. Ritmni shakllantirishda prosodiyaning roli va prosodik sistemada ritmning o‘rni yuzasidan olib borgan tadqiqotlari natijalarini ilova qiladi. Demak, nutqda prosodik vositalar funksiyalarini aniqlash uchun faqat eksperimental-fonetik izlanishlar olib borish orqaligina aniq ilmiy xulosalar olish mumkin.

L.A.Kanter “Sistemniy analiz rechevoy intonasii” nomli asarida intonatsiyaning struktur birliklari eksperimental-fonetik jihatdan o‘rganilgan. U nutqiy intonatsiya masalalarini tizimli tahlil qilgan [9]. Intonatsiya masalalarini tizimli tahlil qilish melodika, urg‘u, temp, pauza va tembr kabi komponentlar funksiyalarining bir-biri bilan bog‘lanishi asosida izohlanadi. Bu komponentlarning nutqdagi ishtiroki natijasida intonatsiya yuzaga keladi.

A.Brizgunovanning ishlari [3] ham eksperimental xarakterga ega ekanligi bilan boshqa tekshirishlardan tubdan farqlanadi. Olimaning asosiy ilmiy xulosasi rus nutqi intonasion strukturasi asosida yetti xil intonasion konstruksiyalar ajratilganida ko‘rinadi. Intonasion konstruksiyalar intonatsiyaning nutqdagi funksiyalari orqali aniqlanadi. Intonasion konstruksiya masalalari prosodika sohasidagi alohida yo‘nalish ekanligi bilan ajralib turadi.

Bugungi kunda jahon tilshunosligida eksperimental-fonetik tadqiqotlarning ko'lamiga tobora kengayib bormoqda. Fonetik-eksperimental kuzatishlar olib borgan tadqiqotchilar qatorida A.S.Shagidevich, O.Ye.Burashnikova, L.N.Sibilyova, A.K.Derkachlarni ko'rsatish mumkin [31; 7; 4; 23]. Umuman, prosodik vositalar masalasi yuzasidan olib boriladigan har qanday tadqiqotlarni eksperimental-fonetik izlanishlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi.

D.L.Lensa va Ye.V.Solovyevaning "Fonetika v aspekte pragmatiki" nomli kitobida [12, 97] segment va supersegment vositalar pragmatolingvistik aspektida o'rganilgan. Mualliflar so'roq ifodalarda emosionallikning segment va supersegment vositalar orqali ifodalanishiga e'tibor qaratganlar. Pragmatolingvistikaning muammolari, prosodiya va sintaksis, prosodiya va leksika, segment va supersegment birliklar tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Matn yoki ifodada illokutiv struktura tilshunoslik uchun yangi muammo sifatida e'tirof etiladi. Tilning pragmatik funksiyasiga bag'ishlangan ushbu tadqiqotda perseptiv va elektroakustik, nazariy va eksperimental-fonetik tahlillarning uyg'un holda olib borilishi bilan bog'liq mualliflarning o'ziga xos metodikasi namoyon bo'lgan. "Ironik matnlarda segment va supersegment fonetika" deb nomlangan qismida ironik matnlarning pragmatik tavsifi, semantik-pragmatik prinsiplari, intonatsiya, semantika va pragmatikaning munosabati, ironik matnlarda intonatsiyaning eksperimental-fonetik tadqiqi masalalari yoritilgan. Prosodika sohasiga bag'ishlangan ishlardan farqli ravishda unda segment va supersegment birliklarning pragmatik xususiyatlari ham nazariy, ham eksperimental-fonetik jihatdan tadqiq etilgan.

Prosodik vositalarning pragmatik xususiyatlarini o'rganish bilan bog'liq yangi metodikaga asoslangan qator eksperimental-fonetik kuzatishlar N.A.Karjanova, A.S.Volkov, N.A.Faustovalarning ishlarida ham ko'zga tashlanadi [10; 5; 27]. Prosodik vositalarning pragmatik funksiyalarini o'rganish bilan bog'liq eksperimental-fonetik tadqiqotlar davri intonatsiya nazariyasida uchinchi davr hisoblanadi.

Bugungi kunga qadar amalga oshirilgan eksperimental-fonetik izlanishlar natijasida prosodika nazariyasi shakllantirildi. Eksperimental-fonetik tadqiqotlar olib borish uchun an'anaviy intonografik metod o'rnini axborot texnologiyalariga asoslangan yangi kompyuter dasturlari egallay boshladi. Natijada fonetika sohasida bunday zamonaviy innovasion eksperimental tadqiqotlarga ehtiyoj kundan-kunga orta boshladi. Bu borada dastlabki harakatlar amalga oshirilgani holda keng miqyosdagi xususiy fonetikaga oid, jumladan, o'zbek tili prosodik birliklarining eksperimental tadqiqiga bag'ishlangan monografik plandagi ishlar mavjud emas. Fonetika sohasidagi xorijiy eksperimental-fonetik tadqiqotlar o'zbek tilshunosligida ham yangi davrning boshlanishi bilan bog'liq masalalar hisoblanadi. Bunday tadqiqotlarning amaliy tomoni umumiy nazariyalar yaratilishiga yo'l ochadi.

Xulosa

Prosodika nazariyasi fonetika fanining eng qiyin va murakkab, shu bilan birga eng qimmatli yo'nalishlaridan biri sifatida bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. So'nggi yillarda texnologiyalar taraqqiyoti tufayli eksperimental-fonetik tadqiqotlarning ko'lamiga kengayib, prosodik birliklarning akustik va pragmatik xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganish imkoniyati yaratildi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, prosodika va intonatsiya masalalarining izchil va tizimli o'rganilishi nafaqat nutqning ichki strukturasi va estetik qimmatini, balki uning kommunikativ va emotsional jihatlarini ham aniqlashga yordam beradi. Shu bois, fonetika fanining hozirgi va

kelajakdagi taraqqiyoti uchun ushbu yo'nalishda maxsus eksperimental izlanishlar olib borish alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Антипова А.М. Ритмическая система английской речи. - М.: Высшая школа, 1984.
2. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. - М.: Советская энциклопедия, 1969.
3. Брызгунова Е.А. Звуки и интонация русской речи. - М., 1983.
4. Бурашникова О.Е. Просодические характеристики истинных и неистинных оценочных иллокутивов (экспериментально-фонетическое исследование на материале современного немецкого языка): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - М., 2009.
5. Вольков А.С. Просодические особенности реализаций ложных речевых актов (экспериментально-фонетическое исследование на материале современного немецкого языка): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Нижний Новгород, 2013.
6. Глисон Г.А. Введение в дескриптивную лингвистику - М.: Изд-во иностранной литературы, 1959.
7. Деркач А.К. Культурно-специфические характеристики просодии директивных высказываний: экспериментально-фонетическое исследование на материале французского, немецкого и русского языков (экспериментально-фонетическое исследование на материале современного немецкого языка): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - М., 2007.
8. Зиндер Л.Р. Общая фонетика. - М.: Высшая школа, 1979.
9. Кантер Л.А. Системный анализ речевой интонации. - М.: Высшая школа, 1988.
10. Каржанова Н.В. Экспрессивная функция интонации в современном французском языке (экспериментально-фонетическое исследование на материале высказываний, выражающих эмоции группы «радость»): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - М., 2000.
11. Квятковский А. Поэтический словарь. - М.: Советская энциклопедия, 1966.
12. Ленца Д.Л., Соловьева Е.В. Фонетика в аспекте прагматики. - Кишинев: Штиинца, 1989.
13. Матусевич М.И. Современный русский язык. Фонетика. - М.: Просвещение, 1976.
14. Махмудов А. Интонографик метод ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти - Тошкент, 1970. - 6-сон. - Б. 54.
15. Махмудов М., Шукуров Р. Арасту "Риторика"сида нотиклик санъати ва маънавият асослари // Арасту. Ахлоқи кабир. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2018. - Б. 310-342.
16. Махмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. - Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. - Б. 79.
17. Николаева Т.М. Интонация сложного предложения в славянских языках. - М.: Наука, 1969. - 286 с.
18. Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. - Тошкент: Шарқ, 2001. - Б. 81.
19. Панов М.В. Современный русский язык. Фонетика. - М.: Высшая школа, 1979.
20. Пешковский А. М. Интонация и грамматика. - М., 1928;
21. Реформатский А.А. Введение в языковедение. - М.: Просвещение, 1967;

22. Светозарова Н.Д. Интонационная система русского языка. – Ленинград: Изд-во Ленинградского университета, 1982.



INNOVATIVE
ACADEMY